




FARG'ONA VILOYATIIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar-aprel






CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiyligi ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- may holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **8431** tani tashkil etib, 2022- yil 1- mayga nisbatan **549** taga kamaygan (o'sish sur'ati **93,9 %**). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **153** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **8278** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTlar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-aprel oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **6 936,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **107,3 %** ni tashkil etdi.

Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **574,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **117,7 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **6 362,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **106,1 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **562,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **109,7 %**) tashkil etdi.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**




Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami, mlrd. so'm	2022-yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda
Farg'na viloyati	6 936,4	107,3	574,2	117,7	6 362,2	106,1
Shaharlar						
Farg'ona	1 532,9	113,7	201,1	128,7	1331,8	110,5
Qo'qon	1 327,4	110,0	96,8	147,9	1230,7	108,5
Quvasoy	93,9	107,3	4,0	55,8	89,9	121,6
Marg'ilon	1 168,2	108,2	24,7	135,9	1143,5	107,5
Tumanlar						
Oltiariq	245,9	103,3	15,6	106,4	230,3	110,4
Qo'shtepa	177,3	101,0	3,4	124,9	173,9	88,3
Bag'dod	164,1	102,3	5,6	97,4	158,4	109,4
Buvayda	293,1	104,4	14,4	218,5	278,7	83,7
Beshariq	218,8	102,5	6,7	118,8	212,1	90,2
Quva	303,9	101,7	6,8	79,8	297,0	99,4
Uchko'prik	362,6	102,0	164,8	98,1	197,9	103,2
Rishton	211,3	103,4	7,0	102,6	204,3	107,4
So'x	76,0	100,1	1,2	99,2	74,8	112,1
Toshloq	146,1	103,7	2,8	110,4	143,3	96,7
O'zbekiston	158,6	104,7	5,8	107,2	152,8	107,7
Farg'ona	154,0	101,0	3,1	115,4	150,9	117,1
Dang'ara	111,5	102,2	5,1	117,5	106,4	114,4
Furqat	110,3	101,6	2,6	93,4	107,7	103,6
Yozyovon	80,4	101,4	2,8	90,4	77,6	115,9

2023-yilning yanvar-aprel oylarida 2022-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan viloyatning Farg'ona (**113,7 %**), Qo'qon (**110,0**) va Marg'ilon sh (**108,2**) shaxarlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi (yanvar-aprel, mlrd.so'm)



So'nggi 6 yillikda chakan savdo Tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2023- yilda yanvar-aprel oylarida kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2022- yilning mos davriga nisbatan **107,6 %** ni yoki **6 436,2 mlrd. so'mni** tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda)



■ 2022-yil yanvar-aprel oylari ■ 2023-yil yanvar-aprel oylari

2023- yilning yanvar-aprel oylarida o'sish sur'ati **107,3 %** ni tashkil qildi.



JAMI
mlrd. so'm

**Jamiga
nisbatan
tovar
aylanma
si ulushi
(foizda)**

Farg'ona viloyati	6 936,4	100,0
Farg'ona sh.	1 532,9	22,1
Qo'qon	1 327,4	19,1
Quvasoy	93,9	1,4
Marg'ilon	1 168,2	16,8
tumanlar		
Oltiariq t.	245,9	3,5
Qo'shtepa	177,3	2,6
Bag'dod	164,1	2,4
Buvayda	293,1	4,2
Beshariq	218,8	3,2
Quva	303,9	4,4
Uchko'prik	362,6	5,2
Rishton	211,3	3,0
So'x	76,0	1,1
Toshloq	146,1	2,1
O'zbekiston	158,6	2,3
Farg'ona	154,0	2,2
Dang'ara	111,5	1,6
Furqat	110,3	1,6
Yozyovon	80,4	1,2

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)

Eng yuqori hajm, % da

1 Farg'ona sh.– 22,1

2 Qo'qon – 19,1

3 Marg'ilon – 16,8

Eng quyisi hajm, % da

1 So'x – 1,1

2 Yozyovon – 1,2

3 Quvasoy - 1,4

Viloyat chakana savdo Tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Farg'ona shahri **22,1** % bilan **1 532,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyisi ulush esa, So'x tumani **1,1** % bilan **76,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda kamayish kuzatildi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **6 362,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **6,1** % ga ko'paydi Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **91,7** % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atga ega hududlar(foizda)




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **17,7** % ga o'sdi va **574,2** mlrd. so'mni tshkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **8,3** % ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha So'x (98,5 %) Qo'shtepa (98,1 %) va Toshloq (98,1 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 8,3 % ni tashkil etib, eng katta ulush Uchko'prik tumani (45,4 %), Farg'ona (13,1 %) va Qo'qon (7,3 %) shaharlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Farg'na viloyati	1 740,4	105,1
Shaharlar		
Farg'ona	4 858,6	108,1
Qo'qon	4 362,3	94,1
Quvasoy	947,4	105,1
Marg'ilon	4 725,6	106,4
Tumanlar		
Oltiariq	1 096,3	101,2
Qo'shtepa	868,5	98,4
Bag'dod	718,1	100,2
Buvayda	1 210,8	102,1
Beshariq	916,3	100,8
Quva	1 120,4	100,0
Uchko'prik	1 532,1	102,5
Rishton	993,2	101,5
So'x	924,5	98,3
Toshloq	680,3	101,5
O'zbekiston	686,3	111,8
Farg'ona	708,1	102,8
Dang'ara	643,8	106,9
Furqat	884,6	99,5
Yozyovon	684,6	99,2


2023- yilning yanvar-aprel holatiga o'rтacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **1 740,4** ming. so'mni (2022- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan **105,1 %**) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Farg'ona (4 858,6 mingso'm) Marg'ilon(4 725,6 ming so'm), va Qo'qon (4 362,3 ming so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-aprel oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **562,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **109,7 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **353,3** mlrd. so'mni (**134,8 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **209,1** mlrd so'mni tashkil etdi (**83,5 %**).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Farg'na viloyati	562,4	109,7	353,3	134,8	209,1	83,5
Shaharlar						
Farg'ona	62,3	145,4	58,6	153,8	3,7	77,8
Qo'qon	58,1	96,2	38,1	114,5	20,0	73,7
Quvasoy	13,6	76,8	5,7	86,0	7,9	71,3
Marg'ilon	67,0	112,0	46,6	131,8	20,4	83,4
Tumanlar						
Oltiariq	13,7	50,6	6,4	46,1	7,3	55,3
Qo'shtepa	35,2	222,9	22,9	292,4	12,3	154,4
Bag'dod	12,7	59,4	8,3	122,7	4,4	29,9
Buvayda	78,9	222,5	60,4	487,3	18,5	80,3
Beshariq	60,9	151,5	30,8	171,4	30,1	135,3
Quva	38,7	128,6	28,0	320,9	10,6	49,7
Uchko'prik	20,8	128,8	4,6	106,7	16,2	136,8
Rishton	29,6	84,8	11,2	115,8	18,4	72,9
So'x	7,4	50,7	4,8	130,0	2,6	24,0
Toshloq	13,5	328,4	4,3	260,1	9,1	375,3
O'zbekiston	12,3	78,7	6,4	85,9	5,9	72,1
Farg'ona	14,1	42,7	10,4	40,1	3,6	52,2
Dang'ara	3,2	22,2	1,0	8,4	2,2	97,8
Furqat	1,3	41,5	1,1	34,3	0,2	-
Yozyovon	19,1	74,3	3,5	26,9	15,7	121,4

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdag'i tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmag'an holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar-aprel oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **353,3** mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (**131,3** mlrd.so‘m) to‘g‘ri keldi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	Mlrd. so‘m
	Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari 131,3
	Non va non mahsulotlari 22,7
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 52,9
	Tovuq go‘shti 19,9
	Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 28,2
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...) 8,2
	Tuxum 20,7
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak 9,2
	Ziravorlar 11,8
	Tuzlamalar 7,6
	Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari (manzarali va qishloq xo‘jaligi) 6,1
	Nooziq-ovqat tovarlari 34,7

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar-aprel oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o’tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **209,1** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **167,3** mlrd.so‘m, qo‘y va echkilar – **37,0** mlrd. so‘mni, otlar – **2,9** mlrd. so‘mni, parrandalar – **1,9** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)	Mlrd. so‘m
	2 yoshdan kata bo‘lgan qoramollar 90,9
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar 40,4
	1 yoshgacah bo‘lgan yosh mollar 36,1
	Qo‘ylar 35,9
	Otlar 2,9
	Echkilar 1,0
	Kurka, o‘rdak, g‘oz 0,7
	Tovuqlar 1,0
	Quyonlar 0,1
	Qushlar 0,1

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2023- yil 1- may holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalar soni **2 057** tani tashkil etib, 2022- yil 1 – aprel holatiga nisbatan **357** taga kamaygan va **85,2 %** ni tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **4** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **2 053** tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-aprel oyilarda chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **2,4 %** ni tashkil etib, **169,0** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **2,9 %** ga ko'paydi. Bunda savdo aylanmasining **92,8 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda
Farg'na viloyati	169,0	102,9	12,2	135,7	156,8	101,0
Shaharlar						
Farg'ona	71,3	109,9	12,2	135,7	59,0	105,8
Qo'qon	22,9	113,6	-	-	22,9	113,6
Quvasoy	7,9	109,0	-	-	7,9	109,0
Marg'ilon	19,9	110,7	-	-	19,9	110,7
Tumanlar						
Oltiariq	4,1	109,8	-	-	4,1	109,8
Qo'shtepa	1,7	103,4	-	-	1,7	103,4
Bag'dod	2,0	71,8	-	-	2,0	71,8
Buvayda	3,3	108,1	-	-	3,3	108,1
Beshariq	4,8	105,8	-	-	4,8	105,8
Quva	5,7	79,9	-	-	5,7	79,9
Uchko'prik	3,3	66,3	-	-	3,3	66,3
Rishton	7,1	94,2	-	-	7,1	94,2
So'x	0,7	42,7	-	-	0,7	42,7
Toshloq	2,5	66,6	-	-	2,5	66,6
O'zbekiston	1,9	69,2	-	-	1,9	69,2
Farg'ona	3,4	97,2	-	-	3,4	97,2
Dang'ara	3,5	98,8	-	-	3,5	98,8
Furqat	1,3	69,4	-	-	1,3	69,4
Yozyovon	1,7	107,0	-	-	1,7	107,0

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- may holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **952,4** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tkan yilning mos davriga nisbatan **19,8 %** ga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **399,0** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **78,4 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **553,4** mlrd. so'mni o'tkan yilning mos davriga nisbatan **2,9** barobar ga ko'paydi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'ish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Farg'na viloyati	952,5	80,2
Shaharlar		
Farg'ona	308,6	56,1
Qo'qon	408,9	99,0
Quvasoy	0,9	107,0
Marg'ilon	77,4	172,0
Tumanlar		
Oltiariq	1,1	107,4
Qo'shtepa	2,4	106,9
Bag'dod	3,3	107,3
Buvayda	3,5	106,6
Beshariq	0,2	106,5
Quva	1,3	107,2
Uchko'prik	2,9	106,5
Rishton	1,1	107,4
So'x	1,4	257,3
Toshloq	51,2	106,5
O'zbekiston	1,1	107,4
Farg'ona	2,1	106,7
Dang'ara	34,8	106,8
Furqat	7,7	106,6
Yozyovon	42,7	59,4


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Qo'qon (**408,9** mlrd. so'm), Farg'ona (**308,6** mlrd. so'm) va Marg'ilon (**77,4** mlrd. so'm) shahar lari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagи tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mld. so‘mda



Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **3 348,3** mld. so‘mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **10,6 %** ga o‘sdi.



Savdo aylanmasi ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **3 157,2** mld. so‘mni tashkil qilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **108,5 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **94,3 %** ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Bag'dad tumani (**14,4 b.**), Uchkoprik (**11,5 b.**) va Dang'ara (**2,6 b.**) tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- may holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 4297 tani tashkil etib, 2022- yil 1- may holatiga nisbatan 88 taga kamaygan, o'sish sur'ati 97,9 % tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 18 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 4279 tani tashkil qildi.

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar , mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Mikrofirm a va kichik korxonal ar, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda
Farg'na viloyati	3 348,3	110,6	191,1	165,0	3 157,2	108,5
Shaharlar						
Farg'ona	529,5	119,8	158,1	191,4	371,4	103,3
Qo'qon	244,1	130,7	16,8	83,8	227,3	136,4
Quvasoy	99,5	106,8	-	-	99,5	106,8
Marg'ilon	260,2	128,7	-	-	260,2	128,7
Tumanlar						
Oltiariq	107,6	113,9	14,3	124,3	93,2	112,5
Qo'shtepa	45,4	109,4	-	-	45,4	109,4
Bag'dod	76,4	107,7	0,3	1 4,4 b	76,2	107,4
Buvayda	73,6	101,6	-	-	73,6	101,6
Beshariq	107,5	105,8	-	-	107,5	105,8
Quva	105,3	110,1	-	-	105,3	110,1
Uchko'prik	106,5	95,8	0,2	1 1,5 b	106,3	95,7
Rishton	55,0	99,2	0,4	178,2	54,6	98,9
So'x	30,2	107,2	0,1	47,0	30,1	107,6
Toshloq	1181,9	104,9	-	-	1181,9	104,9
O'zbekiston	56,9	102,6	0,2	149,3	56,7	102,5
Farg'ona	59,8	107,6	0,4	45,5	59,4	108,5
Dang'ara	100,3	105,5	0,2	261,8	100,0	105,3
Furqat	48,4	110,3	-	-	48,4	110,3
Yozyovon	60,5	110,0	0,2	137,4	60,3	109,9



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi**
Тел. 71-202-80-44 (45)